


2020-yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 26744 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 16275 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

2020-yil 1-iyun holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 11 533 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, ularning ulushi 70,9 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan,
kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**
(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)




2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 40,8 % ni tashkil etdi.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 481,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,5 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda savdo xizmatlariga 32,1 %, transport xizmatlariga 18,9 %, moliyaviy xizmatlarga 17,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,5 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da



2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 183,0 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-aprel oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 857,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2020-yil yanvar-may oylarida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi (yanvar-aprel oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 278,4 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 155,6 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 140,8 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 21,1 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 82,7 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 132,8 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 29,1 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	3481,5	95,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	193,0	110,5
moliyaviy xizmatlar	608,7	125,2
transport xizmatlari	659,7	85,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	632,1	87,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	89,1	80,7
savdo xizmatlari	1 116,7	94,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	89,4	79,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	135,0	108,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	47,8	89,8
ijara xizmatlari	89,0	90,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	107,0	80,8
shaxsiy xizmatlar	106,0	81,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	49,3	93,7
boshqa xizmatlar	190,8	84,2

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 125,2 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 110,5 % da ta'lim sohasidagi xizmatlari 108,2 % da, xizmat turlarida qayd etildi.


2020-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 79,0 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 80,7 % va kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash 80,8 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-may oylarida uning ulushi 32,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 18,9 %, moliyaviy xizmatlar 17,5 % va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,5 % egallaydi.


**2020-yil yanvar-may oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**



2020-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 838,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 50,9 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



■ Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar

■ Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllarni savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2020-yil yanvar-may oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 85,2 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,0 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,8 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2020-yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da



-  Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
-  Telekommunikatsiya xizmatlari


2020-yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 193,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-aprel oylari) davrga nisbatan o'sishi 21,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,0 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 89,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,6 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,5 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 608,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (89,9 %) tashkil etadi.

**2020-yil yanvar-may oylarida
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da**




**2020-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 481,5	95,5
Qarshi sh.	1 753,7	95,5
Shahrisabz sh.	112,0	96,8
tumanlar:		
G'uzor	125,1	98,5
Dehqonobod	86,1	96,3
Qamashi	110,4	93,1
Qarshi	138,9	97,8
Koson	204,3	98,9
Kitob	180,9	95,5
Mirishkor	62,0	95,5
Muborak	91,0	95,7
Nishon	108,1	90,7
Kasbi	78,1	94,6
Chiroqchi	171,4	94,5
Shahrisabz	119,2	91,4
Yakkabog'	140,2	91,8

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1 753,7 mlrd. so'm), Koson (204,3 mlrd. so'm), Kitob (180,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (171,4 mlrd.so'm) va Yakkabog' (140,2 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (62,0 mlrd. so'm), Kasbi (78,1 mlrd. so'm) va Dehqonobod (86,1 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


**2020-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Nishon (90,7 %), Shahrisabz (91,4 %), Yakkabog' (91,8 %) va Qamashi (93,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (50,4 %), Koson (5,9 %), Kitob (5,2 %), Chiroqchi (4,9 %) va Yakkabog' (4,0 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mirishkor (1,8 %), Kasbi (2,2 %), Dehqonobod (2,5 %) va Muborak (2,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
(998)75-221-44-32
(998)75-220-04-12